

JAVPAYA MASSIVIDA YASHIL HUDUDLAR MAYDONI YANADA KENGAYMOQDA



Javpaya massivida yashil hududlar maydoni yanada kengaymoqda

Daraxt ekib, bog' yaratish va bir niholni parvarishlab, uni voyaga yetkazish ezgu amallardan biri hisoblanadi va buning zamirida ulkan mehnat va mashaqqat mujassam. Ayni paytda, ushbu ezgu amallarni amalga oshirish bo'yicha Respublikamiz hududlarida, ayniqsa, So'x tumanida keng qamrovli ishlar amalga oshirilyapti.


"Yashil makon" umumimilliy loyihasi bugun butun xalqimizni savob ishlarni amalga oshirish sari chorlamoqda, chunki ta'kidlaganimizdek, daraxt ekish ham ayni savob amal hisoblanadi. Qal'acha mahallasining Javpaya massivida ham ushbu loyiha doirasida xayrli ishlar qilinmoqda.

Tuman hokimi Sayidbahrom Sayidiusayev boshchiligida hududning Qal'acha va G'aznov mahalla fuqarolari bilan issiqxonalar joylashgan bo'sh yer maydonlariga tut ko'chatlari va boshqa mevali daraxtlar nihollari o'tqazildi. YErlarni tayyorlashda maxsus texnikalar safarbar etilib, ushbu xayrli amalda Farg'ona viloyati o'rmon xo'jaligi vakillari ham ishtirok etdi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati







Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-11-29 16:42:53